

Maftuna BEKMURODOVA

***YAXSHI
NIYAT***

Qarshi
«Nasaf» nashriyoti
2006

84(59)6-5 93b. adab. asarlari

- Sheʼrlar

Maftuna o'zining ushbu mo'jazzina kitobiga "Yashi niyat "deb nom qo'yibdi. Undagi samimiy bitilgan misralar Maftunaning bir necha yildan beri she'rlar mashq qilayotganidan darak beradi. Uning Vatan, ona hamda ustozga bo'lgan muhabbati bolalikning o'ziga xos musaffo tuyg'ulari ila yo'g'rilgan satrlarda aks etgan. She'riyat dunyosiga yaxshi niyatlar ila qadam qo'ygan Maftunaning ijodiga parvozlar tilaymiz.


10 32953
021

B 4702620202-59 59-2006 M.Bekmurodova, 2006-y.
376(11)2006
ISBN 5-7323-0514-2

2007

A1035

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston Mh



O'ZBEKISTON

*Bobolarim faxrining,
Allomalar ahlining,
Ma'naviyat shahrining,
O'zbekiston yurtidir.*


*Gullasin O'zbekiston,
Yashnasin O'zbekiston.
Biz holalar baxtiga,
Bor bo'lsin O'zbekiston.*

ISTIQLOL

*Istiqlolim, berding erk,
Osoyishta hayotim.
Istiqlolim, sen o'zing,
Mening yolg'iz bayotim.*

*Tuproq'ingni o'pib ko'zga surtgayman,
Istiqlolim, senga she'rlar bitgayman.
Bir kaft tuprog'ingga jon fido aylab,
Nomingni ulug'lab kuylah o'tgayman.*





MUALLIM

*Salom so'zimning boshi,
Porlab turgan quyoshi.
Sho'xligimiz ko'targan,
Muallimim bardoshi.*

*Yo'limizga yo'l boshchi,
O'quvchining sirdoshi.
Sho'xligimiz ko'targan,
Muallimim bardoshi.*





NAVOIY BOBOM


*Olimlarning sardorisiz,
So'z mulkining sultoni siz.
Besh dostonni yaratgan,
Olim-u fozil o'zingiz.*

*Siz yozgan dostonlarni,
O'qiymiz, o'rganamiz.
Biz sizdan o'rnak olib,
Yo'lingizdan horamiz.*

BU VATANDA

*Bu Vatanda hulbul sayraydi,
Bu Vatanda inson yayraydi.
Qushlar chug'urlashib kuylaydi,
Bolalar ham yayrab o'ynaydi.*







BUYUK VATAN

*Men yetim emasman, yetim demanglar,
Mayli yo'qdir otam, mehribon onam.
Lek hali tirikman, tanda jonim bor,
Ota-onam bo'lur shu buyuk Vatan.*

ONAJONIM

*Uzoq umr so'rayman sizga,
Baxt-saodat tilayman sizga.
Mehribonim, jonajonim,
Mening aziz onajonim.*







QISHLOG'IM

*Shamol g'ir-g'r yeladi,
Atrof gulga to'ladi,
Endi bahor keladi,
Bir kun kelib qishlog'im,
Go'zal shahar bo'ladi.*

*Quyosh bobo kuladi,
Olam nurgu to'ladi.
Ko'klam, Navro'z keladi,
Bir kun kelib qishlog'im,
Go'zal shahar bo'ladi.*





ZULFIYAXONIM QIZLARI

*Uxlamasdan tunlari,
Bir dunyo orzulari,
Kitohdadir ko'zlari,
Zulfiyaxonim qizlari.*

*Doim yorug' yuzlari,
O'chmagay yulduzlari,
Oqiladir o'zlari,
Zulfiyaxonim qizlari.*

*Iste 'dodlar namoyon,
Yo'qdir dillarda armon,
Orzularidir a'yon,
Zulfiyaxonim qizlari.*






JANNAT ONALAR OYOG' I OSTIDADIR

*Onalarni ta'riflashga so'zim ojiz,
Men ularning poylariga cho'kaman tiz.
Onalarni asraganimiz emas bejiz,
Chunki dunyo onalarning poyidadir,
Jannat onalar oyog'i ostidadir.*

*Onalardek zot bormikan bu dunyoda,
U kishini ardoqlashar bog' sahroda,
Hurmatlari baland erur ko'k fazoda,
Demak, zamin onalarning qo'lidadir,
Jannat onalar oyog'i ostidadir.*






MAKTAB TABIATI

*Maktabimiz bog'ida,
Turar daraxtlar qator.
Terak, archa yonida
O'rik-u olchalar bor.*

*Barcha yerlar yam-yashil,
Gullar rangi xilma-xil.
Olib ustoz sabog'in,
Oqi, o'rgan, doim bil.*

*Maktabimiz bog'idan,
Uchib chiqar lochinlar.
Keng yangi hayot sari,
Intilishar lochinlar.*




DO'STLIK

*Do'stlik ulug' bir tuyg'u,
Bu tuyg'uda sehr bor.
Yuraklarni larzaga,
Soluvchi bir mehr bor.*

*Bu dunyoda hamma ham,
Do'st topar, hamdard topar.
Ezguliklar bor joydan
Doim yomonlik qochar.*

*Do'st tanlashda adashma,
Hamdard bo'lgin birovga.
Har kim bilan sirlashma,
Do'st topa bil o'zingga.*



YAXSHI NIYAT

*Tangri senga bersa tole va davlat,
Unutma, esingdan chiqmasin himmat.
Bilgilki, bu joning asli omonat,
Omonatga qilma aslo xiyonat.*

*Har dam qilaylik yaxshi bir niyat,
Ollohdan tilaylik farovon hayot.
Dillarda bo'lmasin gina va illat,
Tinch-totuv yashasin barcha millat.*



BAHOR KELDI

*Yurtimizga bahor keldi,
Navro'z keldi, azizlar.
Yurtimizga ko'klam keldi,
Shabnam keldi, azizlar.*


*Gulga to'ldi ko'chalar,
Kurtak ochdi daraxtlar.
Gulladi olma anor,
Mana, yana keldi bahor.*

*Chumolilar chiqib indan,
Boshladilar mehnatni.
Bobodehqon quvnab dildan,
Ko'zga ilmas zahmatni.*

GO'ZALLIK

*Go'zal bo'lsa ayol, barqaror hayot,
Go'zal bo'lsa gullar, go'zaldir bahor.
Go'zal bo'lsa hislar, go'zaldir turmush,
Go'zal bo'lsa osmon, go'zal to'lin oy.*






ILTIJO

*iltijo qilaman, yig'layman zor-zor,
Bechora bandaman, yo'lim tikanzor.
Hayotda ko'rmadim, hech baxtu iqbol,
Qanot ber, osmonim quchog'ingga ol.*

*Kutaman intizor sendan bir nido,
Sukut saqlaymanu chiqarmu sado.
Ojiza bir qizman yurakda alam,
Hayotda ishonchim dardkashim qalam.*

*Insonga ishonch yo'q, imon yo'q ba'zan,
Yoningda sirdoshing, darmon yo'q ba'zan.
Botganda qayg'uga, chekkanda alam,
Yana dardimni olar shu munis qalam.*

*Ruhimga orom ber, faqat osmonim,
Ishonch hayotdagi yolg'iz poshonim.
Hayot mening ushun bo'lsa-da zolim,
Ber qo'limga qalam, baxtu iqholim.*



QORA

*Atrof qora, tunlar qora, yuragim qora,
Men uchun bu dunyo, zamin ham qora.
Beshigimning boshidan to qabringacha,
Har lahza, onim, kunlarim qora.*

*Chidayman bu falak uf urar alam,
Hatto ko'zlarimdan qalqimas yoshim.
Alamli kunlarda qalam sirdoshim,
Yozganim-tizganim she'rlarim qora.*

*Hayot davom etar charxpalak misol,
Umr - misli qalqigan daryo,
Umrin daryosidan oqqan jilg'alar,
Jilg'alar shivirlar: suvlar ham qora.*

*Ey qora, nimasan? Ko'rinmas halo,
Qo'llaring muz desam, bag'ring ham to'fon.
To'fonlaring olib ketgan ko'zim nurini,
Qoldirgani shu faqat qalamim qora.*




OTA – ONANG YONINGDA

*Omad doim bo'lsin yor
Hamisha, har kuningda.
Hamrohingdir nomus, or,
Ota-onang yoningda.*

*Sen baxtlisan, Maftuna,
Senga yo' lamas alam.
Ota-onang hor ekan,
Go'zaldir yorug' olam.*

*Shukr qilgum Oллоhga
O'tajak har kunim-chun.
Bo'lay doim xizmatda,
Otam ham onam uchun.*



BAXT

*Zargar hilar zar qadrini,
Dehqon hilar yer qadrini.
Sen bilurmisan odamzot,
Yoningdagi baxt qadrini.*

*Bu kunlarni g'animat bil,
Bugun hori ertaga yo'q.
Boylik topib, cheklanmagin,
Hisoblama o'zingni to'q.*

*Chunki boylik o'tkinchidir,
Har dam bo'lmas yoningda.
O'qi, o'rgan, bilimli bo'l,
Bu baxt ekanin tut yodingda.*

USTOZIM

*Otamdek ulug`dir mening ustozim,
Sizga baxshidadir yurak dil rozim.
Baytlar bitayin siz uchun o'zim,
Rahmat sizga aziz, aziz ustozim.*





IKKI BUYUK ZOT

*Men uchin dunyoda ikki zot bordir,
Mehrga sazovor, hurmatga loyiq.
Biri munis onam, biri ustozim,
Eng ulug' ne 'matim- shu ikki ko'zim.*

ONA TILIM

*O'zbeginning shuhrati,
Porlagan keng jahonga.
Ona tilim qudrati,
Namoyondir olamga.*

*Ona tilim muqaddas,
Unda bordir joziha.
Men ham uning shaydosi,
Niyatim ham pok, toza.*

MUNDARIJA

<i>O'zbekiston</i>	3
<i>Istiqlol</i>	3
<i>Muallim</i>	4
<i>Navoiy bobom</i>	5
<i>Bu Vatanda</i>	5
<i>Buyuk Vatan</i>	6
<i>Onajonim</i>	6
<i>Qishlog'im</i>	7
<i>Zulfiyaxonim qizlari</i>	8
<i>Jannat onalar oyog'i ostidadir</i>	9
<i>Maktab tabiati</i>	10
<i>Do'stlik</i>	11
<i>Yaxshi niyat</i>	12
<i>Bahor keldi</i>	13
<i>Go'zallik</i>	13
<i>Illitjo</i>	14
<i>Qora</i>	15
<i>Ota-onang yoningda</i>	16
<i>Baxt</i>	17
<i>Ustozim</i>	17
<i>Ikki buyuk zot</i>	18
<i>Ona tilim</i>	18

ADABIY-BADIIY NASHR

BEKMURODOVA MAFTUNA

YAXSHI NIYAT

She'rlar

O'zbek tilida

Muharrir: Sh.Pirmatova.

Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.

Musahhah: Sh.Pirmatova.

IB: 1059

Terishga 2.11 2006-yilda berildi. Bosishga 9.11 .2006-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84 x108 $\frac{1}{32}$. Shartli bosma tabog'i 1,05. Shartli bo'yoq-ott. 1,11. Nashr tabog'i 0,41. 64-2006-shartnoma. 113-buyurtma. 150 nusxada. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi huzuridagi "Matbaa" sexida chop etildi.

730018. Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.